



**ORIENTAL
UNIVERSTETI**

RUSTAMBOYEV ISLOMJON DONIYOR O'G'LI

MAMLAKATSHUNOSLIK (KOREYA TARIXI)

1-QISM

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA



SEOUL

PYONGYANG

JANUBIY KOREYA

SHIMOLIY KOREYA

DMZ

TOSHKENT-2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**ORIENTAL
UNIVERSITETI**

RUSTAMBOYEV ISLOMJON DONIYOR O‘G‘LI

MAMLAKATSHUNOSLIK

(KOREYA TARIXI)

1-QISM

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT-2026

UO‘K 94 (5/9)

KBK 63.3 (5Ko)

R 95

Rustamboyev I.D.

MAMLAKATSHUNOSLIK (KOREYA TARIXI) 1-QISM. O‘quv-uslubiy qo‘llanma/ I.D.Rustamboyev. – Toshkent: «ZUXRO BARAKA BIZNES» nashriyoti, 2026.

Taqrizchilar:

Ismoil Xo‘jaxonov

Tarix fanlari nomzodi

Nurbek Sattorov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur O‘quv-uslubiy qo‘llanma Koreya yarim orolining tabiiy-geografik, ma‘muriy-hududiy hamda demografik xususiyatlarini kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan. Qo‘llanmada Koreya yarim orolining geografik joylashuvi, relyefi, iqlimi, gidrografiyasi, tuproq va o‘simlik qoplami, hayvonot olami hamda tabiiy resurslari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, tarixiy jarayonlar ta‘sirida shakllangan ma‘muriy bo‘linish tizimi, Koguryo va Choson davrlaridagi hududiy boshqaruv tajribasi, zamonaviy Koreya Respublikasi va Koreya Xalq Demokratik Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilmalari tahlil qilingan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning muhim qismi Koreya yarim oroli aholisining etnogenezi, demografik holati, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy tuzilishi, mehnat resurslari va zamonaviy demografik muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma Oriental universiteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2026-yil fevraldagi “5”-sonli bayonnomasi bilan nashrga ruxsat etilgan.

© Rustamboyev Islomjon Doniyor o‘g‘li, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU:KOREYA YARIM OROLINING TABIIY	4
GEOGRAFIYASI	
2-MAVZU:KOREYA YARIM OROLI MA'MURIY	22
BO'LINISH TIZIMI	
3-MAVZU:KOREYA YARIM OROLI AHOLISI VA	49
DEMOGRAFIK JARAYONLAR	
FOTDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	70

KIRISH

XXI asrda Sharqiy Osiyo mintaqasi, xususan Koreya yarim oroli siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar markazlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hududning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy taraqqiyot yo‘li, ma‘muriy boshqaruv tizimi va demografik holatini chuqur o‘rganish mintaqaning hozirgi rivojlanish jarayonlarini to‘g‘ri anglash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Koreya yarim orolini kompleks geografik va ijtimoiy-demografik makon sifatida tahlil qilishga qaratilgan. Unda yarim orolning tabiiy sharoitlari – tog‘ tizimlari, iqlim zonalari, suv resurslari, tuproq va biologik xilma-xillik masalalari bilan bir qatorda, tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Bu esa Koreya yarim orolining iqtisodiy rivojlanish salohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, qo‘llanmada Koreya yarim orolining ma‘muriy-hududiy bo‘linish tizimi tarixiy bosqichlar kesimida yoritilib, qadimgi va o‘rta asrlardagi davlat boshqaruvi tajribasi zamonaviy KXDR va Koreya Respublikasi ma‘muriy tuzilmalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Aholi va demografik jarayonlarga bag‘ishlangan boblarda esa koreys xalqining etnik shakllanishi, aholi soni dinamikasi, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya va mehnat resurslari muammolari ilmiy yondashuv asosida bayon etilgan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma talabalarda Koreya yarim oroli haqidagi tizimli bilimlarni shakllantirish, mintaqaviy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda global va mintaqaviy jarayonlarni anglashda mustahkam nazariy asos yaratishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: KOREYA YARIM OROLINING TABIYIY GEOGRAFIYASI



1-MAVZU: KOREYA YARIM OROLINING TABIIY GEOGRAFIYASI

MAVZU REJASI:

1. **Koreya yarim orolining geografik joylashuvi, chegaralari va geosiyosiy o‘rni**
2. **Koreya yarim orolining relyefi, tog‘ tizimlari, Qirg‘oq chizig‘i, dengizlar va orollar tizimi**
3. **Gidrografik tarmoq: daryolar, ko‘llar va suv resurslari**

Tayanch tushunchalar: Koreya yarim oroli, Sharqiy Osiyo, geografik joylashuv, quruqlik chegaralari, dengiz chegaralari, sohil chizig‘i, orollar, hududiy tortishuvlar, tog‘ tizimlari, Paektu (Baekdu) tog‘i, iqlim zonalari, musson iqlimi, dengizlar, daryolar, gidrografiya, tuproq turlari, o‘simliklar qoplami, hayvonot olami, tabiiy resurslar, foydali qazilmalar.

Koreya yarim orolining geografik joylashuvi, chegaralari va geosiyosiy o‘rni. Osiyoning sharqiy qismida joylashgan Koreya yarim oroli uch tomondan suv havzalari bilan o‘ralgan: sharqda Yaponiya dengizi (Janubiy Koreyada “Sharqiy dengiz” deb yuritiladi), g‘arbda Koreya va Xitoy oralig‘idagi Sariq dengiz hamda janubda Koreya bo‘g‘ozi orqali Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashadi. Yarim orolning shimoliy qismi Xitoy va Rossiya bilan chegaradoshdir. Koreya yarim oroli taxminan 38-parallel (38° shimoliy kenglik) bo‘ylab cho‘zilgan bo‘lib, aynan shu chiziq bo‘ylab uzunligi 237 kilometrni tashkil etuvchi demilitarizatsiya qilingan zona (DMZ) joylashgan. Ushbu hudud Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasida tabiiy-siyosiy chegara vazifasini bajaradi. Umuman olganda, yarim orol hududining qariyb 45 foizi Janubiy Koreyaga, 55 foizi esa Shimoliy Koreyaga to‘g‘ri keladi.

Janubiy Koreya (rasmiy nomi – Koreya Respublikasi) 99 720 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Hududining taxminan 18 foizi qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli bo‘lib, ekin maydonlari asosan unumdor daryo vodiylari hamda g‘arbiy qirg‘oq tekisliklarida joylashgan. Mamlakat ma‘muriy jihatdan to‘qqizta viloyat va yettita mustaqil metropoliten shaharga bo‘lingan.

Hududning qariyb 70 foizi granit va ohaktosh jinslaridan tarkib topgan tepaliklar hamda tog‘lar bilan qoplangan. Balandligi 1500 metrdan oshadigan tog‘lar kam uchrasa-da, tog‘li relyef mamlakat landshaftiga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Sharqiy qirg‘oq bo‘ylab tog‘ tizmalari dengiz tomon keskin pasayib, qoyali va manzarali sohillarni hosil qiladi.

G‘arbiy hududlar sharqiy mintaqalarga nisbatan ancha tekis bo‘lib, janubiy va g‘arbiy qismlarda unumdor tekisliklar hamda daryo havzalari keng tarqalgan. Sharqiy yonbag‘irlar esa tik va baland tog‘lar bilan ajralib turadi, bu yerda yirik daryolar va keng pasttekisliklar deyarli mavjud emas. Janubiy va g‘arbiy qirg‘oqlar kuchli darajada parchalangan bo‘lib, bu hududlarda 3000 dan ortiq mayda orollar joylashgan. Materikdan taxminan 160 kilometr janubda joylashgan Jeju oroli mamlakatning eng mashhur dam olish maskanlaridan biri hisoblanadi. Aholining katta qismi g‘arbiy pasttekisliklarda istiqomat qiladi.

Tarixan Koreya hududining qariyb to‘rt dan uch qismi o‘rmonlar bilan qoplangan edi. Biroq XX asr boshlarida, ayniqsa yapon mustamlakachiligi davrida, o‘rmonlarning katta qismi kesib tashlangan. Koreya urushidan so‘ng Janubiy Koreyada amalga oshirilgan keng ko‘lamli o‘rmonlarni qayta tiklash dasturlari natijasida mamlakatning tabiiy muhiti sezilarli darajada tiklandi.



KOREYA YARIM OROLI XARITASI. 1-RASM.

Koreya yarim oroli Osiyoning shimoli-sharqiy qismidan janub tomonga qariyb 1000 kilometr ga cho‘zilgan bo‘lib, strategik va geografik jihatdan muhim hudud sanaladi. Yaponiyaning Xonsyu va Kyusyu orollari yarim oroldan taxminan 200 kilometr, Xitoyning Shandun yarim oroli esa 190 kilometr masofada joylashgan. Umumiy uzunligi 8640 kilometrni

tashkil etuvchi qirg‘oq chizig‘i nihoyatda parchalangan bo‘lib, uning atrofida 3500 dan ortiq orollar mavjud.

Yarim orolning shimoliy quruqlik chegaralari Yalu va Tumen daryolari orqali shakllanib, Koreya hududini Xitoyning Jilin va Lyaonin provinsiyalaridan ajratib turadi. Koreya urushidan so‘ng tashkil etilgan DMZ bugungi kunda rasmiy chegara vazifasini bajarib, sharqdan g‘arpga taxminan 241 kilometrga cho‘zilgan va 4000 metr kenglikka ega qat‘iy nazorat ostidagi mintaqani tashkil etadi.

Koreya yarim orolining umumiy uzunligi taxminan 1030 kilometr, eng tor nuqtasidagi kengligi esa 175 kilometrni tashkil etadi. Orollarni ham qo‘shgan holdagi umumiy quruqlik maydoni 220 847 kvadrat kilometrga teng bo‘lib, uning 44,6 foizi Janubiy Koreya hissasiga to‘g‘ri keladi. Shimoliy va Janubiy Koreya hududlari birgalikda AQShning Minnesota shtati maydoniga deyarli tengdir.

Koreya yarim orolining relyefi, tog‘ tizimlari, Qirg‘oq chizig‘i, dengizlar va orollar tizimi. Geologik jihatdan Koreya yarim oroli Yevrosiyo tektonik plitasiga mansub bo‘lib, Yaponiya arxipelagiga nisbatan barqarorroq hudud hisoblanadi. Bu yerda faol vulqonlar va kuchli zilzilalar kam uchraydi. Shunga qaramay, tarixiy manbalarda Koryo sulolasi davrida Halla tog‘ida vulqon faolligi kuzatilgani qayd etilgan.

Koreya yarim orolining relyefi asosan tepaliklar va tog‘li hududlardan iborat bo‘lib, uning janubi-g‘arbiy hamda janubiy qismlarida keng qirg‘oqbo‘yi tekisliklari joylashgan. Muqaddas cho‘qqi sifatida e‘zozlanadigan Paektu (Baekdu) tog‘i Xitoy va Shimoliy Koreya o‘rtasidagi shimoli-sharqiy chegarada joylashgan bo‘lib, 2744 metr

balandligi bilan Koreya hududidagi eng baland tog‘ hisoblanadi. Aynan shu tog‘ massividan janub tomonga T’aebaek tog‘ tizmalari cho‘zilib, ular butun yarim orol bo‘ylab uzluksiz davom etadi va sharqdagi qirg‘oqbo‘yi mintaqalarini g‘arbdagi keng hamda unumdor vodiylardan ajratib turadi. Asosiy tog‘ tizmalari, asosan, sharqiy qirg‘oq bo‘ylab joylashgan. Daryolarning katta qismi qisqa, tez oqimli va kemalar qatnovi uchun yaroqsiz bo‘lib, tik nishablar va sharsharalar bilan ajralib turadi.

Tog‘li relyef tarixan Koreyaning ichki hududlari o‘rtasidagi aloqalarni murakkablashtirib, mintaqaviy ajralishlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Faqatgina temir yo‘llar, avtomobil magistrallari, havo transporti va zamonaviy aloqa vositalarining rivojlanishi bu tabiiy to‘siqlarning ta’sirini bosqichma-bosqich kamaytirdi.

Tabiiy himoya to‘siqlarining nisbatan zaifligi va Sharqiy Osiyodagi markaziy geografik o‘rni tufayli Koreya yarim oroli uzoq vaqt davomida Osiyo materigi bilan Yaponiya arxipelagi o‘rtasida madaniy vositachi vazifasini bajargan. Aynan shu hudud orqali buddaviylik va konfutsiylik an‘analari Yaponiyaga yetib borgan. Shu bilan birga, ochiq geografik joylashuv Koreyani tarixan yirik qo‘shni davlatlarning siyosiy va harbiy bosqinlariga nisbatan zaif holatga solib kelgan. XIX asr oxirida britaniyalik davlat arbobi Lord Jorj Kerzon Koreyani “Xitoy, Rossiya va Yaponiya o‘rtasidagi siyosiy Tom Tiddler” sifatida ta’riflagan bo‘lib, bu holat XX asr tarixida ham o‘z tasdig‘ini topdi.

Yevropalik ilk sayyohlar yarim orol bo‘ylab ketma-ket cho‘zilgan tog‘ tizmalari tufayli bu hududni “kuchli bo‘rondagi dengiz”ga qiyoslashgan. Eng baland cho‘qqilar asosan Shimoliy Koreya hududida joylashgan bo‘lsa, Janubiy Koreyaning eng baland nuqtasi Jeju orolidagi

Halla tog‘i (1950 m) hisoblanadi. Janubiy Koreyada uchta asosiy tog‘ tizimi ajralib turadi: T’aebaek, Sobaek va Jiri (Chiri) tog‘ massivi.

Janubiy Koreya (Koreya Respublikasi) 99 720 kvadrat kilometr maydonni egallab, hududiy jihatdan Indiana shtatidan biroz kattaroq, Pensilvaniya va Portugaliyadan kichikroqdir. Mamlakat Osiyoning shimoli-sharqiy qismida, Koreya yarim orolining janubiy 45 foizini egallagan holda joylashgan. Shimolda Shimoliy Koreya, sharqda Yaponiya dengizi, janubda Koreya bo‘g‘ozi va g‘arbda Sariq dengiz bilan chegaradosh. Poytaxt Seul mamlakatning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan.

1953-yilgi sulh bitimi bilan Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasida Demilitarizatsiya qilingan zona (DMZ) tashkil etilgan bo‘lib, u taxminan 238 kilometr ga cho‘zilgan va 1262 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. DMZ 38-parallel bo‘ylab o‘tadi va texnik jihatdan hanuz urush holatida bo‘lgan ikki davlatni ajratib turadi. Janubiy Koreyaning yagona quruqlik chegarasi aynan Shimoliy Koreya bilan bo‘lgan 237 kilometrlik chegara hisoblanadi.

Janubiy Koreyaning umumiy qirg‘oq chizig‘i 2413 kilometrni tashkil etadi. Sharqiy qirg‘oqlar yaqinidagi Tokto (Dokdo) orollari ustidan Yaponiya bilan uzoq yillardan beri davom etayotgan hududiy nizo mavjud bo‘lib, bu masala ikki davlat munosabatlarida muhim geosiyosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Yer resurslaridan foydalanish tarkibida qishloq xo‘jaligi yerlari 18,1 foizni, o‘rmonlar esa qariyb 64 foizni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi uchun qulay tekis hududlar kamligi sababli dehqonchilik intensiv usullarda olib boriladi. So‘nggi o‘n yilliklarda qishloq joylardan

shaharlarga migratsiya kuchayib, bugungi kunda aholining qariyb uchdan ikki qismi shahar hududlarida istiqomat qilmoqda.

Janubiy Koreya dunyodagi eng zich aholi joylashgan davlatlardan biri hisoblanadi. Aholi zichligi bir kvadrat kilometrda o'rtacha 527 kishini tashkil etadi. Taqqoslash uchun, Mo'g'ulistonda bu ko'rsatkich 2 kishi, AQShda 35 kishi, Bangladeshda esa bir kvadrat kilometrda qariyb 2890 kishi to'g'ri keladi. Yuqori aholi zichligiga ega boshqa davlatlar qatoriga Singapur, Belgiya va Niderlandiya kiradi.

Mamlakat hududining qariyb 70 foizi tog'lar va tepaliklardan iborat bo'lgani sababli aholi asosan pasttekislik hududlarda jamlangan. Seul va Inchxonni o'z ichiga olgan shimoli-g'arbiy Gyeonggi viloyati eng zich aholi yashaydigan mintaqaga bo'lsa, shimoli-sharqdagi Gangwon viloyati eng kam aholiga ega hudud hisoblanadi. Shimoliy Gyeongsang, Gangwon hamda Shimoliy va Janubiy Jeolla viloyatlarida aholi sonining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Janubiy Koreya relyefining asosiy qismini past, ammo qo'pol tuzilishga ega granit va ohaktosh tog'lari tashkil etadi; 1500 metrdan baland cho'qqilar kam uchraydi. Asrlar davomida tog'li hududlardagi o'rmonlarning katta qismi kesib tashlangan, bu esa tuproq eroziyasi va suv toshqinlari muammolarini kuchaytirgan. Biroq 1960-yillardan boshlab amalga oshirilgan keng ko'lamli o'rmonlarni qayta tiklash dasturlari natijasida 1980-yillarga kelib tepalik hududlarning katta qismi yana o'rmonlar bilan qoplandi.

Mamlakatda keng va uzluksiz tekisliklar mavjud emas; pasttekisliklar asosan tog' jinslarining eroziyasi natijasida shakllangan. Hududning taxminan 30 foizi pasttekisliklardan iborat bo'lib, ular asosan


gʻarbiy qirgʻoq va yirik daryolar boʻylab joylashgan. Eng muhim tekisliklar qatoriga Xan, Kum va Naktong daryolari havzalari, shuningdek Honam va Yongsan tekisliklari kiradi. Sharqiy qirgʻoq boʻylab esa tor va choʻzilgan qirgʻoq tekisligi mavjud.

Janubiy Koreyaning oʻrtacha balandligi 282 metrni tashkil etadi. Eng past nuqtalar dengiz sathiga teng boʻlib, qirgʻoq hududlarida joylashgan. Eng baland nuqta esa 1950 metr balandlikdagi Halla togʻi boʻlib, u Jeju orolida joylashgan soʻngan vulqon konusidir. Mamlakat hududida uchta asosiy togʻ tizimi ajralib turadi: Tʻaebaek va Sobaek togʻ tizmalari hamda Jiri (Chiri) togʻ massivi. Jiri togʻi (1915 m) Janubiy Koreya materik qismidagi eng baland choʻqqi hisoblanadi.

Tʻaebaek togʻ tizmasi sharqiy qirgʻoq boʻylab shimoldan janubga choʻzilib, yarim orolni sharqdagi qirgʻoqboʻyi hududlari va gʻarbdagi vodiylarga ajratib turadi. Sobaek togʻ tizmasi esa ichki hududlarni janubiy qirgʻoq mintaqalaridan ajratib turuvchi tabiiy toʻsiq vazifasini bajaradi. Togʻli relyef tarixan mintaqalararo aloqalarni murakkablashtirgan boʻlsa-da, zamonaviy transport va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi bu toʻsiqlarning ahamiyatini sezilarli darajada kamaytirdi.

Janubiy Koreyaning togʻlari manzaraviy jihatdan muhim ahamiyatga ega boʻlib, koreys jamiyatida alohida madaniy qadriyat sifatida eʼzozlanadi. Piyoda sayohat va togʻ sayrlari aholining eng ommabop hordiq chiqarish turlaridan biri sanaladi, ayniqsa sharqiy qirgʻoq boʻylab togʻlarning dengizga keskin tushib borishi oʻziga xos va jozibali landshaftni yuzaga keltiradi.

Janubiy Koreyadagi togʻlarning balandligi, odatda, shimoliy



**KOREYA YARIM OROLINING TOG‘ TIZMALARI XARITASI.
2-RASM.**

hududlardagiga nisbatan pastroqdir. T'aebaek tog' tizmasi Yaponiya dengizi bo'ylab shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha cho'zilgan bo'lsa, Sobaek tog' tizmasi ham asosan shu yo'nalishda joylashgan. Janubiy Koreya materik qismidagi eng baland cho'qqi — Jiri (Chiri)-san (1915 m) mamlakatning janubi-markaziy hududida, Sobaek tizmasining janubiy chekkasida joylashgan. Mutlaq eng baland nuqta esa Jeju orolidagi Hallasan bo'lib, uning cho'qqisida kichik krater ko'li mavjud. Ikki cho'qqili noyob Maisan tog'i ("Ot quloqlari tog'i") Cheongju shahri g'arbida joylashgan.

Gidrografik tarmoq: daryolar, ko'llar va suv resurslari. Mamlakat hududida daryo va soylar ko'p bo'lsa-da, tog'li relyef ustunligi sababli, dengizga yaqin qismlardan tashqari, kema qatnovi uchun to'liq yaroqli daryolar deyarli mavjud emas. Asosiy daryolar qatoriga Sariq dengizga quyiladigan Xan va Kum, Koreya bo'g'oziga oqib tushadigan Naktong va Somjin daryolari kiradi. Eng uzun daryo — Naktonggang (525 km) bo'lib, undan keyin Xan (514 km) va Kum (401 km) daryolari keladi. Ushbu daryolar qisman navigatsiya uchun yaroqli bo'lib, tarixan Seul kabi shaharlarning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Guruch ekin maydonlarining qariyb 70 foizi sug'orishda aynan daryo suvlariga tayanadi.

Yirik suv tizimlari orasida Imjin va Puxan daryolari alohida ahamiyatga ega. Daryolar, asosan, shimoldan janubga yoki sharqdan g'arbgacha oqib, Sariq dengiz hamda Koreya bo'g'oziga quyiladi. Ularning suv rejimi mavsumiy bo'lib, yoz boshidagi yomg'irli davrda oqim keskin kuchayadi. Suv toshqinlari, ayniqsa g'arbiy qirg'oqdagi estuariy

hududlarda tez-tez kuzatiladi. Naktong daryosi dengizga tutashgan qismida yirik delta hosil qilgan.


Shimoliy hududda, Chuncheon shahri yaqinida Uiam, Chuncheon va Soyang sun'iy ko'llari joylashgan bo'lib, ular to'g'onlar qurilishi natijasida vujudga kelgan. Ayniqsa Soyang to'g'onini Osiyodagi eng yirik qum-shag'al to'g'onlaridan biri hisoblanadi. Ushbu suv omborlari sug'orish, energetika va suv ta'minotida muhim ahamiyat kasb etadi.

1980-yillarda Shimoliy Koreya tomonidan DMZdan shimolda Kungang tog'i etagida yirik to'g'on qurilishi haqidagi ma'lumotlar Janubiy Koreyada xavotir uyg'otgan. To'g'on suvlarining Puxan daryosiga kutilmaganda oqib tushishi ehtimoli Seul va uning atrofidagi hududlar uchun jiddiy xavf sifatida baholangan. Shu sababli 1988-yilgi Olimpiya o'yinlari arafasida Janubiy Koreya "Tinchlik to'g'onini"ni qurib bitkazgan.

Seul Shimoliy va Janubiy Koreyani ajratib turuvchi DMZdan atigi 48 kilometr janubda joylashgan. Shahar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va demografik markazi bo'lib, metropoliten hudud aholisi qariyb 25 million kishini tashkil etadi. Seul atrofida Inchxon va Gyeonggi provinsiyasini o'z ichiga olgan poytaxt mintaqasi shakllangan. Mamlakatda Seuldan tashqari Pusan, Inchxon, Daegu, Daejon va Kvanju kabi yirik shaharlar ham muhim mintaqaviy markazlar hisoblanadi.

Janubiy Koreyada bir qator muhim dengiz portlari faoliyat yuritadi. Seuldan taxminan 480 kilometr janubi-sharqda joylashgan Pusan mamlakatning asosiy dengiz porti hisoblanadi. U Nakdong daryosi deltasiga yaqin joylashgan qulay va tabiiy portga ega bo'lib, Janubiy

Koreyaning eng yirik savdo-dengiz markazi sanaladi. Seuldan 64 kilometr



KOREYA YARIM OROLINING DARYOLARI XARITASI.

3-RASM.

gʻarbda joylashgan Inchxon mamlakatdagi ikkinchi eng faol port hisoblanadi. Shuningdek, Pohang, Ulsan va Chinhae portlari ham yirik sanoat markazlari va muhim savdo tugunlari sifatida alohida ahamiyatga ega.

Janubiy Koreyaning umumiy qirgʻoq chizigʻi uzunligi 2413 kilometrni tashkil etadi. Gʻarbiy qirgʻoq Sariq dengiz va Koreya qoʻltigʻi boʻyida joylashgan boʻlib, koreys manbalarida koʻpincha “Gʻarbiy dengiz” deb ataladi. Sharqiy qirgʻoq esa koreyslar “Sharqiy dengiz” deb ataydigan, xalqaro miqyosda Yaponiya dengizi nomi bilan tan olingan suv havzasi bilan tutashgan. Koreya atrofidagi barcha dengizlar Tinch okeani havzasiga mansubdir.

Koreya yarim oroli sharqda Yaponiya dengizi, gʻarbda Sariq dengiz va uning shimoliy qismi boʻlgan Koreya qoʻltigʻi, janubda esa Koreya boʻgʻozi orqali Sharqiy Xitoy dengizi bilan oʻralgan. Sariq dengiz nisbatan sayoz boʻlib, suv sathining mavsumiy oʻzgarishi katta, Yaponiya dengizi esa chuqur va ochiq suv havzasi boʻlib, suv toshqinlari amplitudasi ancha kichikdir.

Janubiy Koreyaning sharqiy qirgʻoq chizigʻi asosan tekis va kam parchalangan boʻlsa, janubiy hamda gʻarbiy qirgʻoqlar murakkab va kuchli darajada parchalangan shaklga ega. Bu farq qirgʻoqlarning geologik tuzilishi bilan izohlanadi: sharqiy qirgʻoq sekin koʻtarilib boradi, janubiy va gʻarbiy hududlar esa pastlab, dengiz bilan murakkab tutashuv hosil qiladi.

Gʻarbiy qirgʻoqda joylashgan Asan qoʻltigʻi Seul tomonga ichkarilab kirib boradi va Shimoliy hamda Janubiy Koreya oʻrtasida boʻlingan Kyongi qoʻltigʻining bir qismini tashkil etadi. Janubi-sharqiy qirgʻoq Pusan yaqinida Nakdong daryosi quyilish joyida ikki qismga ajraladi. Ushbu hududda Sobaek togʻlarining dengizga tomon choʻzilgan tarmoqlari koʻplab yarim orollar, qoʻltiklar va orollarni vujudga keltirgan.

Janubiy Koreya hududida 3000 dan ortiq orol mavjud boʻlib, ularning aksariyati janubiy va gʻarbiy qirgʻoqlar boʻylab joylashgan. Orollar hisobiga mamlakatning umumiy qirgʻoq chizigʻi uzunligi qariyb 8600 kilometrga yetadi. Koreya yarim oroli atrofida qayd etilgan 3400 dan ortiq orollarning koʻpchiligi toshloq, mayda va doimiy aholi yashamaydigan hududlardan iborat.

Eng yirik orol – Jeju oroli boʻlib, u 1825 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Orol vulqon faoliyati natijasida shakllangan boʻlib, bu yerda Janubiy Koreyaning eng baland choʻqqisi – Halla togʻi (1950 m) joylashgan. Muhim orollar qatoriga, shuningdek, Yaponiya dengizidagi Ulleungdo hamda Xan daryosi deltasi yaqinidagi Kangxva oroli kiradi.

Sharqiy qirgʻoq yaqinidagi kichik orollar guruhi ustidan Janubiy Koreya va Yaponiya oʻrtasida uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan hududiy nizo mavjud. Janubiy Koreyada ular Dokdo, Yaponiyada esa Takeshima nomi bilan ataladi; xalqaro manbalarda esa koʻpincha Liancourt qoyalari nomi qoʻllaniladi. Ushbu masala ikki davlat munosabatlarida muhim geosiyosiy omil boʻlib qolmoqda.

MAVZUGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUGʻATI

Koreya yarim oroli – Osiyoning shimoli-sharqiy qismida joylashgan, sharqda Yaponiya dengizi, g‘arbda Sariq dengiz va janubda Koreya bo‘g‘ozi bilan o‘ralgan yirik yarim orol.

Demilitarizatsiya qilingan zona (DMZ) – Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasida joylashgan, taxminan 4 km kenglikdagi va 238–250 km uzunlikdagi qurolsizlantirilgan chegara hududi.

38-parallel – Tarixan Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasidagi dastlabki siyosiy chegara sifatida belgilangan 38° shimoliy kenglik chizig‘i.

Geosiyosiy o‘rin – Davlat yoki hududning xalqaro siyosat, xavfsizlik va strategik manfaatlar tizimidagi joylashuvi va ahamiyati.

Yaponiya dengizi (Sharqiy dengiz) – Koreya yarim orolining sharqida joylashgan dengiz bo‘lib, Janubiy Koreyada “Sharqiy dengiz” deb ataladi.

Sariq dengiz – Koreya yarim orolining g‘arbida joylashgan, nisbatan sayoz va kuchli suv qaytishi (tidal) bilan ajralib turuvchi dengiz.

Yalu (Amnok) daryosi – Koreya yarim oroli bilan Xitoy o‘rtasidagi shimoli-g‘arbiy tabiiy chegarani tashkil etuvchi daryo.

Tumen (Duman) daryosi – Shimoliy Koreya, Xitoy va Rossiya tutashgan hududdan oqib o‘tuvchi, tabiiy chegara vazifasini bajaruvchi daryo.

Paektu (Baekdu) tog‘i – Koreya yarim orolidagi eng baland cho‘qqi (2744 m), Xitoy va Shimoliy Koreya chegarasida joylashgan.

T‘aebaek tog‘ tizmasi – Koreya yarim orolining sharqiy qirg‘oqlari bo‘ylab shimoldan janubga cho‘zilgan asosiy tog‘ tizmasi.

Sobaek tog‘ tizmasi – Janubi-g‘arbiy Koreyada joylashgan, ichki hududlarni qirg‘oqbo‘yi tekisliklaridan ajratib turuvchi tog‘ tizmasi.

Jiri (Chiri) tog‘i – Janubiy Koreya materik qismidagi eng baland cho‘qqi (1915 m).

Jeju (Cheju) oroli – Janubiy Koreyaning eng yirik oroli, vulqon kelib chiqishiga ega va Halla tog‘i joylashgan hudud.

Qirg‘oq chizig‘ining parchalanganligi – Qirg‘oq bo‘ylab ko‘plab qo‘ltiklar, yarim orollar va orollar mavjudligi bilan tavsiflanadigan geomorfologik holat.

Urbanizatsiya – Aholining qishloq hududlardan shaharlarga ko‘chishi va shahar aholisining mutanosib ravishda ortib borishi jarayoni.

MAVZU YUZASIDAN YAKUNIY SAVOLLAR

1. Koreya yarim oroli qaysi geografik mintaqada joylashgan va qaysi dengizlar bilan o‘ralgan?
2. 38-parallel va DMZning geografik hamda siyosiy ahamiyati nimada?
3. Koreya yarim orolining relyefi qanday xususiyatlarga ega?
4. T‘aebaek va Sobaek tog‘ tizimlari yarim orol tabiatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Sharqiy va g‘arbiy qirg‘oqlarning geomorfologik farqlari nimada namoyon bo‘ladi?
6. Koreya yarim orolidagi asosiy daryolar qaysilar va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati nimadan iborat?
7. Orollarning ko‘pligi Koreya qirg‘oq chizig‘iga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
8. O‘rmonlarning tarixiy qisqarishiga qanday omillar sabab bo‘lgan va ular qanday tiklangan?

9. Nima sababdan aholi asosan pasttekislik va daryo vodiylarida joylashgan?

10. Koreya yarim orolining geografik joylashuvi uning tarixiy va geosiyosiy roliga qanday ta'sir ko'rsatgan?

2-MAVZU:

KOREYA YARIM OROLINING

MA'MURIY BO'LINISH TIZIMI



2-MAVZU: KOREYA YARIM OROLINING MA'MURIY BO'LINISH TIZIMI

MAVZU REJASI:

1. Janubiy Koreyaning zamonaviy ma'muriy-hududiy tizimi
2. Ma'muriy bo'linish pog'onalari va ularning xususiyatlari
3. Provinsiyaviy tizimning tarixiy shakllanishi
4. Poytaxt mintaqasi: Seul va Gyeonggi-do
5. Janubiy Koreya provinsiyalari va ularning mintaqaviy farqlari

Tayanch so'zlar: ma'muriy-hududiy tuzilma, maxsus shahar, metropolitan shahar, provinsiya (do), shahar (si), okrug (gun), tuman (gu), mahalla (dong), eup, myeon, ri, urbanizatsiya, poytaxt mintaqasi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, integratsiyalashgan shahar, megashahar.

Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy tuzilmasi.

Janubiy Koreya Respublikasi (Koreya Respublikasi) Sharqiy Osiyoda, Koreya yarimorolining janubiy qismida joylashgan unitar davlatdir. Mamlakat ma'muriy-hududiy jihatdan 17 ta birinchi darajali ma'muriy birlikka bo'lingan. Ular tarkibiga 1 ta maxsus shahar – Seul, 1 ta maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi shahar – Sejong, 6 ta metropoliten shahar – Busan, Daegu, Incheon, Gwangju, Daejeon va Ulsan, 8 ta viloyat – Gyeonggi-do, Gangwon-do, Chungcheongbuk-do, Chungcheongnam-do, Jeollabuk-do, Jeollanam-do, Gyeongsangbuk-do hamda Gyeongsangnam-do, shuningdek 1 ta maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi viloyat – Jeju kiradi. Ushbu ma'muriy birliklar o'z navbatida shaharlar (si), tumanlar (gun), tumanlar (gu), shaharchalar (eup), qishloqlar (myeon) va mahallalar (dong)ga bo'linadi.

Janubiy Koreyaning umumiy maydoni taxminan 100 ming kvadrat



JANUBIY KOREYA RESPUBLIKASINING SIYOSIY XARITASI. 4-RASM.

kilometrni tashkil etadi. Mamlakat shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (Shimoliy Koreya) bilan chegaradosh bo‘lib, bu chegara Koreya yarimorolining deyarli o‘rtasidan o‘tadi va harbiylashtirilgan demilitarizatsiya zonasi (DMZ) bilan ajratilgan. G‘arb tomonda mamlakat Sariq dengiz (Koreys qo‘ltig‘i), sharqda Yaponiya dengizi (Sharqiy dengiz), janubda esa Koreya bo‘g‘ozi orqali o‘ralgan. Janubiy Koreya Yaponiya bilan dengiz orqali chegaradosh hisoblanadi.

Hududining katta qismi tog‘li va qir-adirlardan iborat bo‘lib, tekisliklar asosan g‘arbiy va janubiy sohillarda joylashgan. Mamlakat hududida ko‘plab daryolar mavjud bo‘lib, eng yiriklari – Han, Nakdong va Geum daryolaridir. Janubiy Koreya tarkibiga materik qismidan tashqari ko‘plab orollar ham kiradi, ularning eng yirigi – Jeju orolidir.

Shunday qilib, Janubiy Koreya Respublikasi aniq belgilangan ma‘muriy-hududiy tizimga ega bo‘lib, dengizlar bilan o‘ralgan va shimolda Shimoliy Koreya bilan chegaradosh davlat hisoblanadi.

Koreya yarim oroli ma‘muriy-hududiy tuzilmasining tarixiy rivojlanishi. Janubiy Koreyaning ma‘muriy-hududiy tuzilmasi bitta Maxsus shahar, oltita Metropolitan shahar, bitta Maxsus o‘zini o‘zi boshqaruvchi shahar (Sejon) hamda bitta Maxsus o‘zini o‘zi boshqaruvchi provinsiya (Jeju-do)ni o‘z ichiga olgan holda jami to‘qqizta provinsiyadan iborat. Mamlakatdagi yagona Maxsus shahar – Seul bo‘lib, u Choson sulolasi davridan (1392-1910) buyon milliy poytaxt vazifasini bajarib kelmoqda.

Oltita Metropolitan shahar – Busan, Incheon, Daegu, Daejeon, Gwangju va Ulsan bo‘lib, ular mos ravishda Gyeongsangnam-do, Gyeonggi-do, Gyeongsangbuk-do, Chungcheongnam-do, Jeollanam-do

va Gyeongsangnam-do hududlarida joylashgan. Ushbu shaharlarning beshtasi 1995-yilda, Ulsan esa 1997-yilda Metropolitan shahar maqomini olgan.

Janubiy Koreyada markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti "mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi" orqali amalga

oshiriladi. Bu tizim tarixan sakkiz provinsiyadan iborat an'anaviy ma'muriy tuzilishga tayanadi. Ushbu provinsiyalar besh asrdan ortiq vaqt davomida hududiy boshqaruv asosini tashkil etib, o'ziga xos madaniy mintaqalarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shu sababli Poytaxt mintaqasi – Seul va Gyeonggi-do hududlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy tuzilma darajalariga ko'ra, shaharlarda tumanlar (gu) va mahallalar (dong), provinsiyalarda esa shaharlar (si) va okruglar (gun) mavjud. Avtonom tumanlarga bo'lingan shaharlar to'rt pog'onali tizim asosida (provinsiya – shahar – tuman – mahalla), kichik shaharlar esa uch pog'onali tizim (provinsiya – shahar – mahalla) asosida boshqariladi. Okruglar esa provinsiya – okrug – shaharcha yoki qishloq jamoasi (eup/myeon) – qishloq (ri) ko'rinishidagi to'rt pog'onali tizimga ega.

Metropolitan shahar maqomini olish uchun kamida bir million aholi talab etiladi. Shahar (si) maqomi ellik mingdan bir milliongacha aholi mavjud bo'lgan hududlarga beriladi. Shaharning avtonom tumanlarga bo'linishi uchun aholi soni kamida besh yuz ming bo'lishi kerak. Qishloq jamoasining (myeon) shaharcha (eup) maqomiga ko'tarilishi uchun esa kamida yigirma ming nafar aholi mavjud bo'lishi lozim.

1995-yilda “shahar–qishloq integratsiyalashgan shaharlar” joriy etildi. Bu islohot doirasida ilgari okruglardan ajralib chiqqan shaharlar qayta birlashtirildi va ularga eup, myeon hamda ri kabi quyi bo‘linmalarni



KOREYA YARIM OROLINING CHOSON (LI) SULOLASI (1392-1910) DAVRIDAGI MA'MURIY TUZILISHI. 5-RASM.

saqlab qolish imkoniyati berildi. Natijada uch pog'onali (Maxsus yoki Metropolitan shahar – tuman – mahalla) va to'rt pog'onali (provinsiya – shahar/okrug – quyi birliklar) ma'muriy tizimlar bir vaqtda amal qiladigan murakkab, ammo moslashuvchan boshqaruv modeli shakllandi.

Janubiy Koreya provinsiyaviy tizimining ildizlari 1413-yilda joriy etilgan sakkiz provinsiyali tizimga borib taqaladi. Ular Gyeonggi, Chungcheong, Jeolla, Gyeongsang, Gangwon, Hwanghae, Pyeongan va Hamgyeong provinsiyalaridan iborat bo'lgan. 1896-yilda ushbu tizim 13 provinsiyaga kengaytirildi. Koreya urushi (1950–1953) natijasida hududiy bo'linish yuz berib, Shimoliy va Janubiy Koreyada ayrim provinsiyalar alohida shaklda rivojlandi.

1946-yilda Jeju orolining alohida provinsiya maqomini olishi bilan Janubiy Koreyada provinsiyalar soni to'qqiztaga yetdi. 2006-yilda Jeju-do Maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi provinsiya, 2012-yilda esa Sejon shahri Maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi shahar maqomini oldi. Natijada Janubiy Koreyada bir Maxsus shahar, oltita Metropolitan shahar, bitta Maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi shahar, sakkizta oddiy provinsiya va bitta Maxsus o'zini o'zi boshqaruvchi provinsiyadan iborat, jami o'n yettita mintaqaviy boshqaruv birligini o'z ichiga olgan zamonaviy ma'muriy-hududiy tizim shakllandi.

Seul. Seul shimoldan janubga 30,3 km, sharqdan g'arbga 36,7 km masofaga cho'zilgan, umumiy maydoni 605 km² bo'lgan va 2026-yil holatiga ko'ra 10 mlndan oshig' aholiga ega Janubiy Koreya poytaxtidir. U mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va transport markazi bo'lib, Koreya yarim orolining markaziy qismida, Gyeonggi-do provinsiyasi

bilan o‘ralgan hududda joylashgan. Shahar ramziy guli – forsitiya, daraxti



KOREYA YARIM OROLINING ZAMONAVIY DAVRIDAGI MA'MURIY TUZILISHI. 6-RASM.

ginkgo, qushi – qarg‘aqush, maskoti esa Haechi nomli afsonaviy mavjudotdir.


Seulning 18 ta birodar shahri mavjud bo‘lib, ular orasida Tokio, Moskva, Parij, Pekin, Rim va Ankara kabi yirik global markazlar bor. Shahar 1988-yilgi Yozgi Olimpiya o‘yinlariga mezbonlik qilgan va aholisi 10 milliondan oshgan dunyodagi yirik megashaharlardan biri hisoblanadi.


Seul mamlakat hududining atigi 0,6 foizini egallashiga qaramay, aholining qariyb beshdan biri aynan shu shaharda yashaydi. Aholi zichligi har km² ga o‘rtacha 16 760 kishini tashkil etib, Seulni nafaqat Janubiy Koreyada, balki OECD¹ davlatlari orasida ham eng zich aholi joylashgan shaharlardan biriga aylantiradi. Aholisi 5 milliondan ortiq megashaharlar ichida Seul zichlik bo‘yicha yettinchi o‘rinda turadi.

Shahar 1394-yildan buyon poytaxt vazifasini bajarib kelmoqda. Choson sulolasi davrida Hanseong (Hanyang), Yaponiya mustamlakachiligi yillarida Gyeongseong nomlari bilan tanilgan. 1945-yildan keyin hozirgi nomini olgan. XVIII asrda aholisi 200 ming atrofida bo‘lgan Seul XX asr o‘rtalaridan boshlab jadal urbanizatsiya jarayonini boshdan kechirib, 1988-yilga kelib 10 milliondan ortiq aholiga ega bo‘ldi. Bugungi kunda Gangnam-gu, Gwanak-gu va Eunpyeong-gu eng yirik tumanlar hisoblanadi.

¹ OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tarkibiga 38 ta davlat kiradi. Ular asosan rivojlangan va yuqori daromadli iqtisodiyotlarga ega mamlakatlardir. Janubiy Koreya OECDga 1996-yilda a‘zo bo‘lgan. OECD markazi Parij shahrida joylashgan.

Seul xorijiy fuqarolar soni eng ko‘p bo‘lgan shaharlardan biri bo‘lib, turistik va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi Insa-dong, Myeong-dong, Itaewon va Gangnam hududlarida jamlangan. Shahar markazida Gyeongbokgung va Changdeokgung saroylari, Bukchon Hanok qishlog‘i,





KOREYA RESPUBLIKASINING POYTAXTI SEUL SHAHRI.

7-RSAM.

Cheonggyecheon soyi, Namsan bog‘i va Koreya milliy muzeyi kabi muhim tarixiy-madaniy obidalar joylashgan. So‘nggi yillarda Hongdae, Sinchon va Hangang daryosining janubidagi Gangnam hududi ham katta sayyohlik qiziqishi uyg‘otmoqda.

Seul manzarasining asosiy xususiyati – shaharni ikkiga bo‘lib o‘tuvchi Hangang daryosi va uni o‘rab turgan tog‘ tizimlaridir. Daryo ustidan 20 dan ortiq yirik ko‘prik o‘tgan bo‘lib, ular Gangbuk va Gangnam hududlarini bog‘laydi. Hangang bo‘ylarida osmono‘par binolar, turar joy majmualari va muhim infratuzilma obyektlari joylashgan.

Shahar atrofini Bukhansan, Dobongsan va Gwanaksan kabi tog‘lar o‘rab turadi. Ayniqsa kuz faslida bu hududlar aholi va sayyohlar uchun mashhur dam olish maskanlariga aylanadi. Global megashahar

markazidan qisqa vaqt ichida baland tog'larga yetib borish imkoniyati Seulning noyob tabiiy-geografik xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Gyeonggi-do provinsiyasi. Gyeonggi-do provinsiyasi 10 200 km² maydonga ega bo'lib, Janubiy Koreya hududining 10,1 foizini egallaydi. Aholisi 12,23 mln kishini tashkil etib, bu mamlakat aholisining qariyb 24 foiziga teng. Har km² ga o'rtacha 1 202 kishi to'g'ri keladi, shu sababli Gyeonggi-do aholi soni va zichligi bo'yicha mamlakatdagi eng yirik provinsiya hisoblanadi.

Provinsiya Koreya yarimorolining markaziy qismida joylashgan bo'lib, sharqdan g'arbga taxminan 150 km, shimoldan janubga 140 km masofaga cho'zilgan. Hozirgi Incheon shahri tarixan Gyeonggi-do tarkibiga kirgan, biroq 1981-yilda alohida Metropolitan shahar maqomini olgan. Bugungi kunda provinsiya 3 ta okrug va 28 ta shahardan iborat bo'lib, shaharlashuv darajasi mamlakatdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Tarixan Gaeseong shahri va unga tutash hududlar ham Gyeonggi-do tarkibida bo'lgan.

“Gyeonggi” atamasi “poytaxt” va “poytaxt atrofidagi hudud” ma'nolarini anglatadi. Koryo sulolasi davrida poytaxt Gaeseong atrofidagi hudud shu nom bilan atalgan, Choson sulolasi davrida esa poytaxt Hanseonga (Seul) ko'chirilishi bilan provinsiya hududi janub tomonga siljigan. 1413-yilgi ma'muriy islohotlar natijasida Gyeonggi-do sakkiz provinsiyadan biri sifatida shakllangan.

Topografik jihatdan provinsiya sharqda baland, g'arbga tomon esa asta-sekin pasayadi. Sharqiy hududlarda 1000 metrga yaqin tog'lar joylashgan bo'lsa, g'arbiy qismida Gimpo, Ilsan va Pyeongtaek tekisliklari keng tarqalgan. Bu hududlar tarixan guruch yetishtirishga mos

bo‘lib, 1990-yillardan boshlab Seul atrofidagi yangi shaharlar barpo etishda faol o‘zlashtirilgan.

Gyeonggi-do Sariq dengiz qirg‘oqlari hamda Imjingang va Hangang daryolari havzasini qamrab oladi. G‘arbdagi Gyeonggiman ko‘rfazi notekis qirg‘oqlari, ko‘plab orollari va kuchli suv ko‘tarilish-pasayishlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa Ganghwado oroli va Janghva-ri sho‘rlik zonalari bilan mashhur.

1980-1990-yillarda Gyeonggi-do Janubiy Koreyada aholisi eng tez o‘sayotgan hudud bo‘lgan. Bu o‘shish sanoatlashtirish, urbanizatsiya va Seuldan aholi ko‘chib kelishi bilan bevosita bog‘liq edi. 2013-yilga kelib 31 ta mahalliy hududdan 28 tasi shahar maqomiga ega bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining qisqarishiga qaramay, Yeosu va Incheon hududlarida yetishtiriladigan “Gyeonggi mi” guruchi yuqori sifati bilan mashhurligini saqlab qolmoqda. Provinsiya, shuningdek, Seul–Incheon va

katta qismini tog‘lar va o‘rmonlar egallagani bo‘lib, o‘rmonlar provinsiya maydonining 80 foizidan ortig‘ini tashkil etadi.

Gangvvon-do Janubiy Koreyaning eng tog‘li provinsiyasi bo‘lib, Taebaek tizmasi sharqiy qirg‘oq bo‘ylab cho‘zilgan. Sharqiy Yeongdong hududida qiyaliklar tik, daryolar qisqa va tez oqimli, tekisliklar kam. G‘arbiy Yeongseo qismi esa nisbatan tekis bo‘lib, dehqonchilik hamda sport-turizm rivoji uchun qulayroq sharoitga ega.

Provinsiyaning janubi-sharqida ohaktosh qatlamlari keng tarqalgan bo‘lib, bu yerda sement sanoati va karst relyefi rivojlangan. XX asrda muhim bo‘lgan ko‘mir sanoati 1980-yillardan keyin deyarli to‘xtagan; Jeongseon hududi bugungi kunda Kangwon Land dam olish majmuasi bilan tanilgan.


Iqlim jihatidan Gangvvon-do mamlakatdagi eng qorli hudud bo‘lib, ayrim joylarda qor qatlami 1 – 2 metrga yetadi. Pyeongchang tumanida 2018-yil Qishki Olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilgani bunga misoldir. Qishloq xo‘jaligi yerlarining ulushi atigi 9,6 foizni tashkil etib, asosan kartoshka, makkajo‘xori va tog‘ karam (baechu) yetishtiriladi.

Sharqiy dengiz bo‘yidagi Sokcho, Gangneung va Samcheok portlari baliqchilik va mahalliy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. 2025-yil holatiga

ko‘ra, provinsiya 7 ta shahar va 11 ta okrugdan iborat bo‘lib, ma‘muriy markazi Chuncheon, eng yirik shahri esa Vonju hisoblanadi.

Sanoatning cheklanganligi va boy tabiiy landshaftlari tufayli Gangvvon-do Janubiy Koreyaning yetakchi sayyohlik hududlaridan biridir. Seoraksan milliy bog‘i, Sharqiy dengiz sohillari va tog‘- o‘rmon landshaftlari provinsiyaning asosiy turistik resurslarini tashkil etadi.

Chungcheong-do provinsiyasi. Chungcheong nomi XV asr



GANGVVON-DO PROVINSIYASINING XARITASI. 9-RASM.

boshlarida shakllanib, sobiq provinsiyaning yirik shaharlari – Chungju va Cheongju nomlaridan kelib chiqqan. Hudud Hoseo nomi bilan ham tanilgan bo‘lib, “ko‘lning g‘arbida” degan ma’noni anglatadi; bu atama Jecheon yaqinidagi Uirimji suv ombori yoki Buyeo hududidagi Geumgang daryosi bilan bog‘lanadi. 1896-yilda Chungcheong provinsiyasi shimoliy (Chungcheongbuk-do) va janubiy (Chungcheongnam-do) qismlarga ajratilgan.

Ikki provinsiyaning jami aholisi 3,6 mln kishini tashkil etib, Janubiy Koreya aholisining 7,1 foiziga teng. Umumiy maydoni 15612 km² bo‘lib, mamlakat hududining 15,6 foizini egallaydi. Aholi zichligi har km² ga 231,9 kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich mamlakatda yuqori darajalardan biridir. Buning asosiy sababi – hududning pasttekis va tekis relyefi hamda

Chungcheongbuk-do provinsiyasi. Chungcheongbuk-do 1896-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ma‘muriy markazi Cheongju hisoblanadi. 2025-yil holatiga ko‘ra, aholisi 1,57 mln kishi, maydoni 7407 km², aholi zichligi esa 212 kishi/km² atrofida bo‘lgan. Provinsiya asosan tog‘li bo‘lib, Sobaek tog‘ tizmasi bo‘ylab cho‘zilgan; Sobaeksan, Songnisan va Minjujisan eng muhim cho‘qqilaridir. Ushbu tog‘lar Hangang, Geumgang va Nakdonggang daryolarining suvayirg‘ichlarini hosil qiladi.

Iqlimi kontinental bo‘lib, yillik yog‘ingarchilik o‘rtacha 1200 mmni tashkil etadi. Yerlarning qariyb 70 foizi tog‘lar bilan band, qishloq xo‘jaligi maydonlari 20 foizdan kam. Guruch Geumgang vodiysida, qurg‘oq dehqonchilik esa Jecheon va Danyang hududlarida rivojlangan. Mahalliy mahsulotlar orasida qalampir, kunjut, tamaki, jinjen va Chungju olmalari muhim o‘rin tutadi.

Ma‘muriy jihatdan provinsiya 3 ta shahar va 8 ta tumandan iborat bo‘lib, Cheongju aholisi provinsiya aholisining yarmidan ortig‘ini jamlaydi. Sanoatda Osong BioValley va sog‘liqni saqlashga oid davlat muassasalari muhim rol o‘ynaydi.

Chungcheongnam-do. Chungcheongnam-do tarixan Gongju va Buyeo kabi shaharlar bilan bog‘liq bo‘lib, poytaxti 2013-yildan buyon Hongseong-gunda joylashgan. 2025-yilda aholisi 2,05 mln kishi, maydoni 8 204 km², aholi zichligi esa 250 kishi/km²ni tashkil etgan. Hudud asosan granit va metamorfik jinslardan iborat bo‘lib, markaziy qismi tog‘li, g‘arbiy qismi esa Sariq dengizga tutash pasttekisliklardan iborat.

Geumgang daryosi havzasi provinsiyaning asosiy gidrografik tizimini tashkil etadi. Taean yarimoroli va Anmyeondo oroli qumli plyajlari bilan mashhur bo‘lib, qirg‘oq hududlarida yerlarni dengizdan

qaytarib olish ishlari olib borilgan. Iqlimi yumshoq bo‘lib, o‘rtacha yillik harorat 12°C atrofida. Qishloq xo‘jaligi yerlarining qariyb 30 foizi dehqonchilikka yaroqli bo‘lib, guruch yetishtirish yetakchi tarmoq hisoblanadi.

Provinsiya 8 ta shahar va 7 ta tumandan iborat. Buyeo va Gongju hududlari Baekje davlati merosi bilan, Gyeryongsan va Taeanhaean hududlari esa tabiiy va madaniy turizm obyektlari bilan mashhur. Daecheon plyaji va loy festivali Chungcheongnam-do ning eng tanilgan turistik brendlaridan biridir.

Jeollabuk-do provinsiyasi. Jeollabuk-do 1896-yilda Jeolla-do provinsiyasining shimoliy va janubiy qismlarga bo‘linishi natijasida tashkil etilgan. Ma‘muriy markazi Jeonju bo‘lib, provinsiya aholisi 1,87 mln kishini (mamlakat aholisining 3,7 %) tashkil etadi. Maydoni 8 066 km², aholi zichligi o‘rtacha 232 kishi/km² bo‘lib, Janubiy Koreyaning o‘rtacha zichlikka ega hududlaridan sanaladi.

Geografik jihatdan sharqiy qismi tog‘li va metamorfik jinslardan, g‘arbiy pasttekis hududlar esa granit jinslardan iborat. Gimje va Jeongeup atrofidagi Honam tekisliklari provinsiyaning asosiy qishloq xo‘jalik mintaqasini tashkil etadi. Asosiy daryolar – Mangyeonggang va Dongjingang. Sharqiy hududda Deogyusan va Naejangsan joylashgan bo‘lib, ular kuzgi manzaralari bilan mashhur. Iqlimi mo‘tadil-kontinental bo‘lib, Jeonju shahrida yillik yog‘ingarchilik o‘rtacha 1300 mm atrofida. Qishloq xo‘jaligi asosan guruch yetishtirishga ixtisoslashgan; Gimje, Iksan va Okgu hududlarida ekin maydonlarining katta qismi sug‘oriladigan yerlardan iborat. Qurg‘oq yerlarda sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Baliqchilik cheklangan bo‘lib, Gunsan va Buan

portlari mahalliy ahamiyatga ega. Sanoat Jeonju – Iksan – Gunsan uchburchagida jamlangan bo‘lib, yengil sanoat ustunlik qiladi.

JANUBIY KOREYANING JEOLLA MINTAQASI. 12-RASM.



Provinsiya 6 ta shahar va 8 ta tumandan iborat. Transport infratuzilmasi XX asr boshidan temir yo‘llar, XXI asrda esa avtomagistrallar va KTX² orqali sezilarli rivojlangan. Naejangsan va Deogyusan milliy bog‘lari, Jeonju Hanok qishlog‘i va Muju chang‘i kurorti asosiy turistik maskanlardir.

Jeollanam-do. Jeollanam-do 1896-yilda Jeolla-do provinsiyasining janubiy qismi sifatida tashkil etilgan. Ma‘muriy markazi Muan-gun,

² KTX (Korea Train Express) — Janubiy Koreyada yo‘lovchilarni juda yuqori tezlikda tashuvchi zamonaviy tezyurar poyezd tizimidir. U yirik shaharlarni bog‘lab, 300 km/soatgacha tezlikda harakatlanib, mamlakat transport infratuzilmasida muhim o‘rin tutadi.

